

XXI ASRDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Gulrux Xasanova

*Ilmiy rahbar: Samarqand davlat chet tillar instituti
dotsenti v.b., PhD*

Kamronbek Fayzullayev

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi davrda xorijiy tillarni o'rganish va o'qitishdagi ba'zi muammolar sanab o'tilgan. Shuningdek, unda qilinadigan xatolar va xorijiy tillarni o'qitishda va o'rganish uchun ba'zi to'g'ri tavsiya va maslahatlar berilgan.

Kalit so'zlar: til o'rganish, sertifikat, muammo, xato, metod, usul.

Bugungi kunda ta'lim inson hayotining muhim qismiga aylanib ulgurdi, chunki u bilim va malakani oshirishning muhim omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga asoslanib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar[1].

Shuningdek, bugungi kun yoshlarida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora jadal tus olmoqda. Ingliz, rus, koreys, arab, xitoy, yapon va boshqa dunyo tillarini o'rganishni o'zlarining kelajagi uchun sarmoya, deb bilishmoqda, go'yo. Tanganing ikki tomoni bor deganidek, ona tilisidan ko'ra xorijiy tillar jalb qilayotgani odamda qayg'u uyg'otsa, "ko'chada tosh tepib yurgandan nimadir bilan mashg'ul bo'lgani yaxshi" degan fikr insonga taskin beradi. Juda ko'p til o'rganuvchilar til o'rganishda qator qiyinchiliklarga duchor bo'lishadi. E'tiborli tarafi shundaki, til o'rganuvchilarning aksariyat qismi faqat bir tomonlama maqsad bilan o'rganishga odatlanib qolishgan. Bugungi kun nazarida sertifikatsiz til o'rganuvchi muvaffaqiyatga erishmagan, deb hisoblanadi.

Aslida, bu mutlaqo noto'g'ri. Til o'rganishdan maqsad faqatgina sertifikatni qo'lga kiritish, shunchaki so'zlashishni o'rganish yokida chet elga borish uchun bo'lishi kerak emas. Yoshlar CEFR, IELTS, Topic, TOEFL kabi bir qator "qog'oz"larni til o'rganganining dalili sifatida pesh qilishadi. Bunday "qog'oz"lar bo'lmasa, ular tilni o'rganishmagan, deb bilishadi, go'yo.

Vaholanki, bu sertifikatlarni qo'lga kiritgan til o'rganuvchilari o'zlarini til o'rgatuvchi sifatida qo'ya olmaydi, chunki yetarlicha bilimga ega emas, o'y-xayoli faqat bir nuqtaga tikilib tilni yetarlicha o'zlashtira olmagan yoki o'rganishda bir muncha bo'shliqlar mavjud. Tilni bir tomonlama yoki shunchaki o'tganish o'rganmaslik bilan tengdir. Tilni sertifikatlar uchun o'rganish kerak emas, balki uni

sevish va sidqi dildan o'zlashtirish lozim. Chet tilini o'qitish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlash yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu yo'lda ikkita asosiy to'siq bor. Ularni toifalarga bo'lish mumkin: psixologik va o'quv-amaliy. Psixologik muammo shaxsning biron bir erishib bo'lmaydigan maqsadga erishishga hissiy bog'lanishi yoki unga adekvat harakatlariga to'sqinlik qiladigan to'siq sifatida qarashi. Bu muammoning sababi o'rganuvchining o'ziga ishonchi yo'qligi bo'lishi mumkin. Bu bola o'z bilimining ibtidoiyligini ko'rsatishdan qo'rqqanida, noto'g'ri tushunishni yoki tushunmaslikni istamasa (kamroq odamlarda topilgan) sodir bo'ladi.

Ma'lumki, o'rganuvchilar ko'pincha: "Bu men uchun emas, men buni qila olmayman" yoki "Ingliz tilini o'rganish qiyin", deb aytadilar. Bunday fikr noto'g'ri. Psixologik muammoning paydo bo'lishining keyingi sababi - bu til to'sig'i. Bu xato qilishdan qo'rqish va o'z nodonligini ko'rsatish bilan bog'liq. Talabalar orasida iborani mukammal talaffuz qilish, birinchi marta gapni to'g'ri qurish kerak bo'lgan perfeksionistlar bor. Ammo shuni tushunish kerakki, til o'rganayotganda bu mumkin emas. O'rganishning dastlabki bosqichidagi bola xato qilishi mumkin va kerak. [2] Til o'rganishdagi bir qancha muammolarni ko'rib chiqdik. Xo'sh, til o'rgatishdagi muammolar qanday? Bunda ham til o'rganishdagi kabi bir qator xato va kamchiliklar mavjud.

To'g'ri, tajribali o'qituvchilar o'zining boshqaruv "texnikasi" va metodlariga ega bo'ladi va bolaga osonlikcha o'rgata oladi. Ammo bugungi kunda yetarlicha salohiyat va malakaga ega bo'lmagan "teacher"lar ham saviyasiz motivatorlar qarori ko'payib bormoqda. Til o'rganishda o'qituvchini to'g'ri tanlay olish ham muhim.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bayonot paytida bolaning gapini to'xtatib, xatolarni tuzatish kerak emas. Kuzatishlar natijasida paydo bo'lgan yana bir kichik, ammo muhim tafsilot - bu bolani tanishtirish paytida ma'qullovchi nigoh. U o'zini o'zi "yurish" mumkinligini his qilishi muhimroq va uning xatosi tasodifiy bo'lib chiqdi. Agar u bir yoki boshqa qoidadagi nuqsonning natijasi bo'lsa, uni keyinroq hal qilish yo'lini topishingiz kerak. Shuningdek, yuqoridagi muammoning manbayi tashqaridan yordamning yetishmasligi bo'lishi mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik o'quvchilarning ota-onalar hayotlari davomida chet tilini bilmaydilar, shuning uchun ular maktab davrida ushbu fanga unchalik ahamiyat bermaydilar. Asosan ona tili va adabiyotidan dars beradigan fan o'qituvchilari "Ular ona tilini bilishmaydi, chet tilini qanday o'rganishadi?!" degan iborani tez-tez takrorlaydilar.

Keyin bolalar boshqa tillarni o'rganish istagini yo'qotadilar, o'z bilimsizliklariga bahona topadilar. Ota-onalar va o'qituvchilar bolaning chet tillarini o'rganish istagini rag'batlantirishlari va qo'llab-quvvatlashlari kerak, shu bilan birga ularning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy vaziyatdagi o'zgarishlarga

moslashish imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhimligini doimiy ravishda uqtirib borishlari zarur [2].

Xorijiy tillarni o'rganishdagi 8 xato: Sayohatchi va yettita tilda bemalol gaplasha oladigan poliglot, irlandiyalik Benni Lyuis o'zining blogida yangi tilni o'rginishga halal beradigan eng ko'p takrorlanuvchi xatolardan 8 tasini sanab o'tgan.

1. Xato qilsangiz asabiylashasiz. Biror yangi narsani o'rganishda xato qilish – tabiiy holat. Xatolaringiz uchun o'zingizni koyisangiz – o'rganish jarayoni stressga aylanadi, tez orada uni tashlab ketasiz. Ushbu faktni qabul qiling – siz xato qilasiz, xatolar orqali o'rganasiz, shunday bo'lishi ham kerak, hammasi yaxshi va hech narsadan xavotir olish kerak emas.

2. “Hech qachon aksentsiz gapirolmayman” deb o'ylaysiz. Yuzlab fonemalar (tovush birliklari) bor va yangi tilga xos tovushlarni avval talaffuz qilmaganingiz uchun, albatta, avvaliga qiynalasiz. O'zingizga yoqqan so'zlar ro'yxatini oling va ularni o'zingiz talaffuz qilishga harakat qiling. Forvo.com (talavvuz qilish uchun onlayn-lug'at)da kerakli so'zlarni qidirib, talaffuzingizni to'g'irlasangiz ham bo'ladi. Unda til egalarining talaffuzini eshitish mumkin. Biroz vaqt o'tgach, shablonlarni o'zlashtira boshlaysiz. So'zlarni qayta-qayta takrorlang. Boshida og'zingiz va tilingiz yangi tovushlarni talaffuz qilish uchun mehnat qilishiga to'g'ri keladi, ammo doimiy takrorlashlar natijasida eng qiyin so'zlarni ham talaffuz qilishga o'rganasiz.

3. Grammatikaga mukkasidan ketgansiz. Grammatika bilan bog'liq keng tarqalgan ikkita xato bor. Birinchisi – uni butunlay inkor qilish. Ikkinchisi – murakkab grammatik qoidalar bilan o'ralashib qolish. Bu yangi tilda gapirishni boshlashga halal beradi. Oraliqni tanlash lozim.

4. Keraksiz so'zlarni o'rganasiz. Hamma narsani ketma-ket o'rganish shart emas. Masalan, darslikdagi “Qilichbozlik” mavzusiga oid hamma so'zlarni yoki “1000 ta eng mashhur so'z” to'plamini yodlash zerikarlidir. Yaxshisi, siz uchun aktual bo'lgan so'zlarni, qiziq bo'lgan mavzularni, ishingiz yoki qiziqishlaringiz bilan aloqador iboralarni o'rganing.

5. Til muhitiga sho'ng'ish faqat chet elda bo'ladi, deb o'ylaysiz. Bunday emas. Hech qayerga ketmasdan ham o'zingizni chet tili bilan qurshab olishingiz mumkin. Hamma ilovalarni va kompyuter dasturlarini – Facebook'dan tortib ovozli yordamchigacha o'rganayotgan tilingizga o'tkazing. Ushbu tilda musiqa, ma'ruzalar va podkast (audiomatn)lar tinglang. Film va seriallar ko'ring. Suhbatlashish mumkin bo'lgan til egalarining onlayn guruhlarini toping.

6. Til egalari bilan gaplashishdan qo'rqasiz. Ha, ular juda tez gapiradi. Agar til o'rganishni endi boshlagan bo'lsangiz, ularni tushunishingiz juda qiyin bo'lishi tabiiy. Quloqlaringizni shug'ullantirsangiz, bu holat o'zgaradi. Subtitrlı seriallar va yozma matnli podkastlar – buning eng yaxshi yo'lidir.

7. Darsliklarga ko'milib olgansiz Maqsadingiz imtihon topshirish emas, chet tilida gaplashish bo'lsa, kitoblarni bir chetga suring. Yangi tilni o'rganish – muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Til o'rganishning boshidayoq uning egalari bilan ko'proq suhbat, ko'proq muloqot amalga oshirishga intiling.

8. Yangi tilni o'rganish juda qiyin, deb hisoblaysiz. Bu eng keng tarqalgan xatolardan biri. –Vaqt va doimiy mashg'ulotlar talab qilinadimi? –Ha. –Bu qo'rqinchimi? –Albatta. –Bu murakkabmi? –Yo'q, unchalikmas. [3] Xo'sh, unda qanday usul foydali? Tilni qay tarzda o'rganish kerak? Til o'rganuvchilar uchun to'g'ri usulni tanlash - bu shaxsiy va muhim qaror. Shuni ham ta'kidlash joizki, eng yaxshisini topish uchun "sehrli o'q" mavjud emas [4]. Bu juda ko'p sinov va kuch talab qiladi. Avval usulni tanlash, uni bir muddat sinash, natijalarni ko'rish va mos keladimi yo'qmi uni hal qilish kerak. Agar shunday bo'lmasa, keyingi usulga o'tish lozim. O'rganuvchilarga mos usulni topmaguncha davom etgan ma'qul.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy tillarni o'rganish zamon talabi bo'lib boraveradi. Ammo foydasiz va keraksiz usullarni tanlab vaqtni behuda o'tkazish achinarli hol. Zero, vaqt - oltindan qimmat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, yangi tahrir, 19-modda
2. Gulrukh Khasanova. (2021). The Effect Of Mimics And Vision In Teacher-Student Communication. International Scientific and Current Research Conferences, 1(1), 61–64. Retrieved from <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/267>
3. Xabardor.uz
4. busuu.com